

**2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan
“YO‘L XARITASI”**

[illegible]

[illegible]

[illegible]

[illegible]

[illegible]

[illegible]

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	2025	2026					2027				2028			
			CH4	CH1	CH2	CH3	CH4	CH1	CH2	CH3	CH4	CH1	CH2	CH3	CH4	
VII. BOSHQA YO‘NALISHLAR																
28	Markaziy bankning nazorat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarini e’lon qilish	Markaziy bankning nazorat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlarini e’lon qilish.														
29	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolining tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan nazoratni takomillashtirish	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan nazoratni takomillashtirish maqsadida: mazkur yo‘nalishda malakali xodimlarni tayyorlashga, shu jumladan ular tomonidan xalqaro miqyosda tan olingan professional sertifikatlar olinishi bo‘yicha choralarni ko‘rish; jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralarni ishlab chiquvchi – FATF guruhining Standartlarini moliya tashkilotlarining qonunchilik hujjatlariga implementatsiya qilib borish; moliya tashkilotlarining benefitsiar mulkdorlarini jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha o‘rganib borish.														
30	Muammoli kreditlarning suddan tashqari restrukturizatsiyasini yo‘lga qo‘yish hamda muammoli aktivlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	Muammoli kreditlarning suddan tashqari restrukturizatsiyasini yo‘lga qo‘yish hamda muammoli aktivlar bozorini yaratish maqsadida: kredit muddatini uzaytirishga asoslangan amaldagi yondashuvdan, olgan krediti muammoliga aylangan qarzdorlarning istiqbollarini o‘rganish va tiklashga qaratilgan tizimni joriy qilish; yirik muammoli korporativ kreditlar sifatini yaxshilash maqsadida kreditorlar o‘rtasida hamkorlikni tartibga solish mexanizmini joriy qilish; muammoli aktivlarni sotish bo‘yicha yangi tizimni joriy qilish; muammoli qarzdorlikni undirish tizimini tartibga solish.														
VIII. MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHGA QARATILGAN CHORALARNI TAKOMILLASHTIRISH																
31	Kredit portfeli sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida to‘lov qobiliyati makro stress-testini joriy qilish	Jami kreditlar tarkibida muammoli kreditlar ulushi (NPL) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni 9-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bo‘yicha shakllantirish amaliyoti to‘liq yo‘lga qo‘yilgandan so‘ng mazkur ma’lumotlardan to‘lov qobiliyati makro stress-testida foydalanish.														
32	Korporativ kreditlar bo‘yicha valyuta bilan bog‘liq kredit tavakkalchiligini stress-test orqali baholash	To‘lov qobiliyati stress-test vositasini takomillashtirish orqali yuridik shaxslarga xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar bo‘yicha valyuta kursi o‘zgarishi ta’siridagi kredit tavakkalchiligini baholash.														
33	Mavjud likvidlilik stress-testini depozitorlar konsentratsiyasi tahlili bilan to‘ldirish	Tijorat banklarining depozit portfelidagi eng yirik depozitorlar tomonidan banklarga joylashtirilgan mablag‘lar qaytarib olinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarning banklar likvidlilik holatiga ta’sirini likvidlilik makro stress-testi xatarli ssenariysiga qo‘shimcha shok berish orqali baholash.														
34	Tijorat banklari uchun kontrsiklik kapital buferini joriy etish	O‘zbekiston Respublikasida kontrsiklik kapital buferi darajasini belgilash asoslarini ishlab chiqish; Kontrsiklik kapital buferi bo‘yicha tijorat banklari uchun talablarni amaliyotga joriy etish.														
35	Tizimli tavakkalchiliklarni boshqarishda kommunikatsion siyosatni takomillashtirish	Quyidagilarni amalga oshirish: moliyaviy barqarorlik sharhi e’lon qilinganidan so‘ng muntazam ravishda press-konferensiyalar o‘tkazish amaliyotini joriy qilish; makroprudensial siyosat bilan bog‘liq qarorlar qabul qilingandan so‘ng muntazam ravishda press-relizlar chiqarish; Markaziy bankning rasmiy veb-saytida makroprudensial siyosatga oid materiallar ko‘lamini kengaytirish														

* Ushbu “Yo'l xaritasi”da ko'rsatilgan vazifalarning xususiyatlari va ularni amalga oshirish yo'nalishiga qarab, bajarish muddatlari o'zgarishi mumkin.